

«Ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish bo‘yicha maxsus Nazorat guruhi»ning

N I Z O M I

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI MONITORING VA ICHKI NAZORAT BO‘LIMINING

N I Z O M I

I.Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom Andijon Davlat tibbiyot institutining Ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish bo‘yicha maxsus Nazorat guruhi»ning maqomi, asosiy vazifalari, huquqlarini va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining 2009 yil 8 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2009 yil 28 avgustdagи 11-10-sonli topshirig‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash to‘g‘risida”gi 309-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minalash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishni va nazorat qilishni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 8 sentyabrdagi 309-sonli buyrug‘iga muvofiq Ish reglamentiga kiritilgan qo‘sishchalarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqilib, o‘rnatilgan tartibda 2009 yil 18 sentyabrdan rektor huzuridagi kengaytirilgan majlisida tasdiqlangan (4-sonli bayonnoma) institutning Ish reglamenti asosida institutda ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha mutasaddi xodimlarning mas’uliyatini oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirildi. Mavjud xujjalalar ijrosini nazorat qilish bo‘yicha avtomatlashtirilgan dastur (ASKID)ni **Tartibda** belgilangan talablarga hamda Vazirlikning 2010 yil 21 maydagи 195-sonli “Vazirlik apparatida ish

yuritish va hujjatlar ijrosi nazoratini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iiga mos ravishda muvofiqlashtirildi.

Nizomga asosan, nazorat guruhi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lif to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'llim hamda Sog'liqni Saqlash Vazirliklarining Hay'at qarorlari, buyruqlariga hamda mazkur Nizomga muvofiq tuzilgan va institut rektori tasdiqlagan yillik rejaga asosan amalga oshiradi.

Nazorat guruhi a'zolari har bir tekshiruv natijalarini **aniq takliflar bilan** oliy o'quv yurtining rektoriga **taqdim etadi**.

II.Nazorat guruhining vazifalari

Bu guruh quyidagi masalalar bo'yicha oliy o'quv yurtidagi fakultetlar, kafedralar, bo'linmalar faoliyatini **nazorat qiladi va monitoringini olib boradi**:

Quyidagilar nazorat guruhining asosiy vazifalari sifatida belgilansin:

1.Institutda hujjatlar bilan ishslashni tashkil etish hamda ijo intizomining ahvoli monitoringini olib borish.

2.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, mutasaddi vazirliklar, hududiy hokimliklar buyruqlari, qarorlari bajarilishi yuzasidan hisobotlar yuritish.

3.Hujjatlar ijrosi, topshiriqlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlashga oid ishlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda institutda ishlab chiqilgan Tartibda belgilangan talablarga qat'iy amal qilish.

III. Nazorat guruhi quyidagi huquqlarga ega:

1. Oliy ta'lif muassasasida O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, faromon va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlar va topshiriqlari, Vazirliklar va hoqimliklardan ijro uchun yuborilgan qaror, buyruq, farmoyish, yo'riqnomalar, xat, telefonogramma, modernogrammalarni hamda oliy o'quv yurti Ilmiy Kengashi, rektoratning qaror va farmoyishlarini bajarilishini barcha bo'linmalarda nazorat qilish va monitoringini olib borish;
2. Oliy o'quv yurti prorektorlari, fakultet dekanlari, kafedralari, bo'limlari va unga tegishli bo'lgan ta'lif muassasalarida (akademik litsey va boshqalar) ta'lif standartlariga hamda ta'limga oid me'yoriy hujjatlarga amal qilinishini nazorat va monitoring qilish;
3. Oliy o'quv yurti va unga tegishli barcha bo'linmalarda bo'ladigan yig'ilishlarda ishtirok etish;
4. **Oliy ta'lif muassasasi faoliyatini o'r ganish bo'yicha** fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalardan o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun **kerakli hujjatlarni talab qilish** va **kerak bo'lsa masalaga oid mutaxassislarni** jalb qilish;
5. Oliy o'quv yurtidagi **barcha attestatsiyalarni** (bitiruv, magistrlik, ordinatura, katta ilmiy xodimlar va mustaqil izlanuvchi va h.k.) hamda kafedralardagi barcha turdag'i nazariy va amaliy mashg'ulotlarni **o'tkazilishini nazorat va monitoring qilish;**
6. Monitoring va Ichki nazorat huquqi doirasidagi masalalarni joylarda o'r ganish uchun belgilangan tartibda oliy o'quv yurtining malakali professor-o'qituvchilarini jalb qilgan holda guruhlar tuzish;
7. Mutasaddilar tomonidan taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlarni tahlil qilish hamda ularni xolisligi kompleksliligini va sirliliginini ta'minlash.

IV. Nazorat guruhining faoliyatini tashkil etish

Bo'lim O'zbekiston Respublikasi OLiy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2009 yil 8 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi BOsh vazirining 2009 yil 28 avgustdagи 10-11-sonli topshirig'ida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 309-sonli buyrug'i asosida ishlab chiqilgan Tatribda belgilangan talablarga binoan amalga oshiradi.

Nazorat guruhi, guruh rahbari va a'zolardan iboratdir.

Nazorat guruhi tuzilmasi va a'zolar soni institut retorining buyrug'i asosida belgilanadi.

Nazorat guruhining faoliyati har yili rektor huzuridagi yig'ilishlarda muhokama qilinadi va bu haqdagi hisobot institut rektoriga o'quv yilning oxirida taqdim etiladi.

V. Nazorat guruhi a'zolarini moddiy rag'batlantirish

Nazorat guruhi a'zolariga mukofotlar, ustamalar va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan to'lovlardan iborat rag'batlantirish beriladi.

Nazorat guruhi faoliyati institut retorining buyruqlari bilan to'xtatiladi.

Ushbu Nizom "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Institut Nizomi" hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif Vazirligining 2001-yil 28-avgustdagи 309-sonli buyrug'i hamda shu buyruqqa asosan institut rektorining 2010-yil 13-sentyabrdagi 169-T sonli buyrug'iga asosan tuzildi.